



## THE ROLE OF ENVIRONMENTAL ETHICS IN HARMONIZING RELATIONS BETWEEN NATURE, SOCIETY AND HUMAN

**Nazarov Makhsud Abduqodirovich**

Researcher at the National University of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262215>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

Environmental ethics,  
ecological culture, political  
culture, sustainable  
development, nature-  
society-human relations,  
ecological worldview,  
environmental education,  
ecological spirituality,  
social consciousness,  
ecological values.

### ABSTRACT

*The article examines the importance of environmental ethics and culture in harmonizing relations between nature, society and humans. The author analyzes the essence of environmental ethics and culture, its connection with political culture, and the integration of forms of social consciousness in achieving environmental sustainability. The article also reveals issues of environmental education and ecologization of worldview, directions for the formation of ecological spirituality in society, and the role of ecological ethical values in achieving sustainable development. As a result of the research, the role of environmental ethics in «nature-society-human» relations was determined, and practical recommendations for its improvement were developed.*

## РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В ГАРМОНИЗАЦИИ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРИРОДОЙ, ОБЩЕСТВОМ И ЧЕЛОВЕКОМ

**Назаров Махсуд Абдукадирович**

Соискатель Национального университета Узбекистана

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262215>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

Экологическая этика,  
экологическая культура,  
политическая культура,  
устойчивое развитие,  
отношения природа-  
общество-человек,  
экологическое  
мировоззрение,  
экологическое  
образование,

### ABSTRACT

*В статье исследуется значение экологической этики и культуры в гармонизации отношений между природой, обществом и человеком. Автор анализирует сущность экологической этики и культуры, её связь с политической культурой, вопросы интеграции форм общественного сознания в достижении экологической устойчивости. Также в статье раскрываются вопросы экологического образования и экологизации мировоззрения, направления формирования экологической духовности общества, роль экологических этических ценностей в достижении устойчивого развития. В результате исследования определена роль экологической этики в отношениях «природа-общество-человек» и разработаны практические рекомендации по её совершенствованию.*



экологическая  
духовность,  
общественное сознание,  
экологические ценности.

## EKOLOGIK AXLOQNING TABIAT, JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARINI UYG'UNLASHTIRISHDAGI ROLI

**Nazarov Maxsud Abduqodirovich**

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262215>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Ekologik axloq, ekologik madaniyat, siyosiy madaniyat, barqaror taraqqiyot, tabiat-jamiyat-inson munosabatlari, ekologik dunyoqarash, ekologik ta'lim, ekologik ma'naviyat, ijtimoiy ong, ekologik qadriyatlar.*

### ABSTRACT

*Maqolada ekologik axloq va madaniyatning tabiat, jamiyat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif ekologik axloq va madaniyatning mohiyati, uning siyosiy madaniyat bilan bog'liqligi, ekologik barqarorlikka erishishda ijtimoiy ong shakllarining integratsiyalashuvi masalalarini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada ekologik ta'lim-tarbiya va dunyoqarashni ekologiyalashtirish masalalari, jamiyatning ekologik ma'naviyatini shakllantirish yo'nalishlari, barqaror taraqqiyotga erishishda ekologik axloqiy qadriyatlarining o'rni kabi masalalar ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ekologik axloqning «tabiat-jamiyat-inson» munosabatlaridagi roli aniqlangan va uni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

### KIRISH

Ijtimoiy ongning xilma-xil ko'rinishlari ekologik madaniyat va etik qadriyatlar yo'lida uyg'unlashuvi, ekologik muvozanatli taraqqiyotning bir qancha muhim qirralarini ta'minlab beruvchi sub'ektiv omillar majmuasiga tayanadi. Bular qatoriga huquqiy kafolatlar, iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy sharoitlar va boshqa zaruriy asoslarning o'zaro muvofiqligi kiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarda birorta ijtimoiy ong shaklini ustun qo'yish yoki ularni bir-biriga qarshi qo'yish o'zini oqlamaydi. Aksincha, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun inson faoliyatining turli jabhalarini qamrab olib, ular orqali tabiat, jamiyat va inson aloqalarini tashkil qilishning o'ziga xos usullari ta'sirchanligini oshirish talabi paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi shundaki, ijtimoiy ong shakllarining ekologik axloq negizida uyg'unlashuvi, ularning nufuzi va funksional teng huquqliligini ta'minlaydi.

Barqaror taraqqiyotga erishish inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning yuksalishi, eng avvalo, umuminsoniy ekologik qadriyatlar va axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Ularning uyg'un tarzidagi taraqqiyotini amalga oshirish bugungi kunda insoniyat oldida turgan



ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun birinchidan, jamiyatning fikrlash tarzi va ongi ekologik me'yorlar zahirida shakllanishi, ijtimoiy ong shakllarining boshqa ijtimoiy ong ko'rinishlarini tabiiy muhitni himoya qilish maqsadida birlashtirish zarurati barcha ijtimoiy, siyosiy va insonparvarlik fanlarining ekologik mohiyat kasb etishiga doir ilmiy konsepsiya va uslubiy asoslarini yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bugungi kunda global ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida tabiat, jamiyat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishning yangi konsepsiya va uslubiy asoslarini yaratish zarurati paydo bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu masalaga alohida to'xtalib: «Ma'lumki, 5 iyun – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida belgilangan. Mazkur sana jahon hamjamiyati e'tiborini atrof-muhit muammolariga qaratish, ekologiya muhofazasiga jiddiy munosabatda bo'lish tuyg'usini uyg'otishga xizmat qiladi» [2] deb ta'kidlagan edi.

Jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy munosabatlar zahirida inson va tabiat o'rtasidagi chambarchas aloqadorlik yotadi. Bu aloqadorlik nihoyatda murakkab tizimni hosil qiladi. Mazkur tizimdagi o'zaro aloqalarni tartiblashtirishda etik qoidalarni shakllantirish boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan hamkorlikni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash joizki, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda ijtimoiy ong shakllarining axloqiy uyg'unligi qanchalik yuqori bo'lsa, kutilgan samara ham shunchalik sezilarli bo'ladi. Tadqiqotchi T.Qo'lyev yozganidek: «Inson va tabiat munosabatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi» [1].

Tabiiy muhit, jamiyat va inson munosabatlarini ekologik axloqiy kontekstda tadqiq etish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik axloqning o'rni masalasi T.Alimardonovning ishlarida ko'rib chiqilgan. U «Siyosat va axloq muvozanati» asarida: «Jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy aloqalarning barchasi, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tarzda, tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Ekologik qonunlarning asosiy vazifasi tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy ong shakllari integratsiyasini ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida tashkil qilishdan iborat» [4] deb ta'kidlaydi.

Nasrullin A., Lesnik A. «Aralskoe more: gidromonitoring basseyna» maqolasida shunday yozadi: «Ekologik fanlar tizimli monitoringsiz, kuzatuvlarsiz mavjud bo'la olmaydi. YuNESKOning «Inson va biosfera» dasturiga muvofiq ekologik monitoring deganda, kuzatuvlarning majmui tizimini, biosfera holatining tabiiy va antropogen omillar ta'siri ostidagi o'zgarishining bahosi va bashorati tushuniladi» [5]. Buni esa ijtimoiy, siyosiy, gumanitar va tabiatshunoslik fanlarining ekologik ta'lim-tarbiya funksiyasini uyg'unlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Klyagin N.V. o'zining «Tamaddundan kelib chiqishi» nomli asarida ekologik axloqiy funksiyalarida milliylik va umuminsoniylik masalalarini tadqiq qilib, turli xalqlarning madaniy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, mehnat faoliyati sohalari mavjud tabiiy sharoitlar bilan belgilanishini ta'kidlaydi [6].

Gorskiy D.P. o'z asarlarida olimlarning o'z kashfiyotlari uchun ma'naviy javobgarligi borligini, etika qoidalari va me'yorlari olimlarning o'zlari tomonidan ishlab chiqilishi va qabul



qilinishi zarurligini ta'kidlaydi [7]. U fanning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar asosida rivojlanishi ikki xil natijaga ega bo'lishini ko'rsatadi: birinchidan, fan o'z qonuniyatlari asosida rivojlanmay qolsa, ikkinchidan, sof iqtisodiy talablarga xizmat qilsa, ekologik muammolar kelib chiqishi mumkinligini uqtiradi.

Fayzullaev O. «Falsafa va fanlar metodologiyasi» nomli asarida fanning ijtimoiy-tarixiy tajribalarni integratsiyalashtirib, eng avvalo ishlab chiqarish rivoji uchun qudratli ta'sir ko'rsatishini, aynan ana shu yerda ishlab chiqarish ehtiyojlari bosimi ostida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning integratsiyalashishi masalasini ko'tarib chiqadi [8].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar natijasida ekologik axloq va madaniyatning mohiyati quyidagicha aniqlandi: ekologik axloq - bu insonning qurshab turgan tabiiy muhitni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ma'naviy-amaliy faoliyati tizimidir. Ekologik madaniyat esa tabiatni o'zlashtirishning insoniy usulidir, ya'ni u tabiat borlig'ini bunyod etadi, yaxshilaydi.

Ekologik axloq va madaniyatning shakllanishida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlashuvi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu munosabatlar tizimi uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish, qayta ishlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir. Bunda inson faoliyatining tabiatga ko'rsatadigan ta'siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari, tabiatni asrash va muhofaza qilish kabi masalalar ekologik axloq doirasida tartibga solinadi.

Ikkinchidan, insonning tabiatga nisbatan estetik munosabati, tabiat go'zalligini idrok etish, tabiatdan estetik zavq olish, tabiatni asrab-avaylash hissi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar insonning ma'naviy dunyosini boyitadi va ekologik axloqning shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, insonning tabiatga nisbatan mas'uliyati, javobgarlik hissi, boshqa tirik mavjudotlarga g'amxo'rliqi, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi axloqiy normalar belgilanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ekologik axloq va madaniyat jamiyat hayotining barcha sohalariga singib boradi va ijtimoiy ongning boshqa shakllari (siyosiy, huquqiy, diniy, estetik va boshqalar) bilan integratsiyalashadi. Bu integratsiya ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida ekologik axloq va siyosiy madaniyat o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Siyosiy madaniyat o'zining mohiyat mazmuni bilan qadriyatlar, axloqiy hamda ekologik madaniyat bilan yaxlit birlikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Falsafiy adabiyotlarda siyosiy madaniyat - «jamiyatni siyosiy idora qilishning eng yaxshi usullarini, jamiyat qadriyatlari va uni siyosiy qayta qurish ideallarini, odamlarning manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirishda ularning ijtimoiy o'zaro munosabatlarining oqilona shaklini va hokazolarni o'z ichiga oladi» [16].

Ekologik axloq va siyosiy madaniyat o'rtasidagi munosabatlar, tahlilimiz ko'rsatishicha, quyidagi xususiyatlarga ega:

Ekologik axloq va siyosiy madaniyat bir-birini taqozo etadi. Siyosiy madaniyatning yuksalishi ekologik axloqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va aksincha.

Ekologik axloq va siyosiy madaniyat o'z funksiyalari jihatidan ham uyg'unlashadi. Siyosiy madaniyat insoniy tamoyillarga asoslangan ekologik axloqning shakllanishi uchun shart-



sharoitlar yaratib bersa, ekologik axloq o'z navbatida tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhitni himoya etishning aqlga muvofiq holda unumli foydalanish yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ekologik axloq va siyosiy madaniyat o'z qadriyatlar tizimi jihatidan ham uyg'unlashadi. Siyosiy madaniyatning muhim qadriyatlaridan biri - bu inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'lsa, ekologik axloqning muhim qadriyati - bu sog'lom atrof-muhitda yashash huquqini ta'minlashdir.

Ekologik axloq va siyosiy madaniyat jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlash, insoniyatning umumiy farovonligini oshirish kabi umumiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ekologik axloqni siyosiy madaniyatni hisobga olmay turib ko'rib chiqish bir tomonlama bo'lib qoladi. Ekologik axloqning «tabiat-jamiyat-inson» munosabatlaridagi rolini tahlil qilishda, uning siyosiy axloq va madaniyat bilan bog'liq masalalariga e'tibor qaratish muhim.

Ekologik axloq va madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ekologik ta'lim-tarbiya quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Ekologik ta'lim-tarbiya ta'lim tizimining barcha bosqichlarini va shakllarini qamrab olishi, formal va noformal ta'lim shakllarini uyg'unlashtirishi lozim.
2. Ekologik ta'lim-tarbiya turli fanlar va bilim sohalarini integratsiyalashi kerak. YuNESKOning «Inson va biosfera» dasturiga muvofiq ekologik monitoring deganda, kuzatuvlarning majmui tizimini, biosfera holatining tabiiy va antropogen omillar ta'siri ostidagi o'zgarishining bahosi va bashorati tushuniladi [5]. Buni esa ijtimoiy, siyosiy, gumanitar va tabiatshunoslik fanlarining ekologik ta'lim-tarbiya funksiyasini uyg'unlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.
3. Ekologik ta'lim-tarbiya nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki ekologik mas'uliyat, tabiatga g'amxo'rlik, boshqa tirik mavjudotlarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.
4. Ekologik ta'lim-tarbiya nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga, ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Shuningdek, ekologik dunyoqarashni shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarashni ekologiyalashtirish faqat bilimga, ratsional sohaga asoslansa, to'liq samara bermaydi. Bilimlar insonning hissiy bilish sohasiga daxldor bo'lsagina e'tiqodga aylanadi. Bu yerda san'at bilan bog'liq kasblarning roli katta. Ko'pchilik odamlar san'at asarlari bilan oshno bo'lgandagina tabiatni ekologik idrok eta oladi [14].

Ekologik barqarorlikka erishishda turli ijtimoiy institutlarning hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda: siyosiy institutlarning tizimli «majburiy» safarbar qilishi; huquqning qonunlar orqali chegaralashi, ta'qiqlashi va jazolashi; axloqning jamoatchilik fikri, tarixiy shakllangan ma'naviy qadriyatlar yordamida ishontirishi; dinning ilohiy e'tiqod, imon, aqidalar vositasida nazorat funksiyalari bir-birini taqozo qiladi va ularning uyg'unligi kompleks-sistemaliligini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR



Ekologik axloq va madaniyat tabiatni o'zlashtirishning insoniy usulidir, ya'ni u tabiat borlig'ini bunyod etadi, yaxshilaydi. Ekologik axloq – insonni qurshab turgan tabiiy muhitni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ma'naviy-amaliy faoliyati tizimidir. Muxtasar aytganda, jamiyatning ekologik ma'naviyati darajasini belgilab beruvchi normalar va mezonlar tizimidir.

Ekologik axloqni siyosiy madaniyatni hisobga olmay turib ko'rib chiqish bir tomonlama bo'lib qoladi. Siyosiy madaniyat va ekologik axloq o'zaro uyg'unlashib ketadi. Siyosiy madaniyat insoniy tamoyillarga asoslangan ekologik axloqning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratib bersa, u o'z navbatida tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhitni himoya etishning aqlga muvofiq holda unumli foydalanish yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda siyosiy madaniyat va axloqning ekologik axloq va madaniyat tamoyillariga asoslanishi muhim ahamiyatga ega.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy ong shakllarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ong shakllarining ekologik axloq negizida uyg'unlashuvi, ularning nufuzi va funksional teng huquqliligini ta'minlaydi. Bu munosabatlar ijtimoiy ong shakllarini - falsafa, axloq, huquq, siyosat, din, san'at, fan - o'zaro axloqiy ayniqsa ekologik axloq normalari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Ekologik barqarorlikka erishishda: siyosiy institutlarning tizimli «majburiy» safarbar qilishi; huquqning qonunlar orqali chegaralashi, ta'qiqlashi va jazolashi; axloqning jamoatchilik fikri, tarixiy shakllangan ma'naviy qadriyatlar yordamida ishontirishi; dinning ilohiy e'tiqod, iymon, aqidalar vositasida nazorat funksiyalari bir-birini taqozo qiladi va ularning uyg'unligi kompleks-sistemaliligini ta'minlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu tizimning samaradorligi, eng avvalo, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari mustahkamligiga bog'liq bo'ladi.

Ekologik ta'lim-tarbiya fanlarning ekologik axloqiy funksiyalarida milliylik va umuminsoniylik shartli hamda nisbiy bo'lsa ham turli xalqlarning madaniy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, mehnat faoliyati sohalari mavjud tabiiy sharoitlar bilan belgilanadi. Dunyoqarashni ekologiyalashtirish faqat bilimga, ratsional sohaga asoslansa, to'liq samara bermaydi. Bilimlar insonning hissiy bilish sohasiga daxldor bo'lsagina e'tiqodga aylanadi.

Ekologik madaniyat va etik qadriyatlar yo'lida uyg'unlashuvi, ekologik muvozanatli taraqqiyotning bir qancha muhim qirralarini ta'minlab beruvchi sub'ektiv omillar majmuasiga tayanadi. Bular qatoriga huquqiy kafolatlar, iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy sharoitlar va boshqa zaruriy asoslarning o'zaro muvofiqligi kiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ekologik axloq va madaniyatni shakllantirish maqsadida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga ekologik masalalarni integratsiyalashtirish zarur.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat hamkorligini kuchaytirish, ekologik masalalarni hal etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, ekologik jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish, ekologik zararni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.



Ekologik axloq va madaniyatni ommalashtirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekologik masalalarni keng yoritish, ekologik ma'rifat tadbirlarini o'tkazish zarur.

Jamiyatda ekologik qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida ekologik faoliyat namunalarini rag'batlantirish, ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Ekologik faoliyatning samaradorligi davlatning uch yo'nalishdagi ta'minotiga bog'liq: texnik-moddiy resurslar, huquqiy asoslar va ma'naviy-axloqiy qo'llab-quvvatlash. Bu uch omilning uyg'unligini ta'minlash uchun kompleks yondashuvni rivojlantirish kerak.

Xalqaro tashkilotlar, xususan YuNEP, YuNESKO bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularning ekologik madaniyatni rivojlantirish borasidagi dasturlari va loyihalarida faol ishtirok etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, tabiat, jamiyat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishda ekologik axloqning roli benihoya katta bo'lib, bu rolni yanada oshirish uchun jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, ekologik axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy ong shakllarining ekologik integratsiyasini ta'minlash zarur. Bunda siyosiy madaniyat bilan ekologik axloqning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. Qo'yliev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. -T.:TAQL, 2007. -B. 73.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: «O'zbekistn» 2021. B-388.
3. Iqtisodiyot va islohotlar sho'basi. Tadqiqotlar markazi. Atrof-muhit muhofazasi masalalari va O'zbekistonda ekologik siyosatning rivojlanishi. Analitik hisobot. - T: 2020 y. 63 b.
4. Alimardonov T. Siyosat va axloq muvozanati. T.: 2019. «Yangi asr avlodi». B-20.
5. Насруллин А., Лесник А. Аралское море: гидромониторинг бассейна. // Экологический вестник. — 1999. № 4. —С. 11.
6. Клягин Н.В. Происхождение цивилизации. — М.: РАН, 1996. — С. 16—19.
7. Горский Д.П. Ошибки гения самые опасные. — М.: Наука, 1995. —С. 7—41.
8. Fayzullaev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. -T.: «Falsafa va huquq» nashriyoti, 2006. -B. 93.
9. Турченко В.А. Гуманизация и гуманитарные науки. // Гуманитарные науки в Сибири. — 1997. — С. 60—65.
10. Сангинов С., Зуев А., Совранская Т. Культурно-экологическое образование: идеи, приоритеты, принципы. // Экономика и статистика. — 1997. — №2. — С. 44.
11. Неклесса Г. Наша экополитика. // Экологический вестник. — №5—6. — С. 19.
12. Амбарцумян А. Взаимосвязь экономики и экологии // Экологический вестник. — 1998. — №5—6. -С. 46— 47.
13. Эстетическая культура. — М.: РАН, 1996. — С. 36—59.
14. Абдуллаев М. Эстетическая культура. -Т.: «ФАН», 1996. -С. 52-69.



15. Abdullaev B.B. O'zbekiston yoshlari siyosiy madaniyatida qadriyatlar tizimining o'zgarish jarayoni. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024. b-12.
16. Философия. Ростов-на-дону: ФЕНИКС, 1999, -С. 351.
17. Ходжаев А. Экология и охрана окружающей среды: новые вызовы // Общество и управление. - 2022. - №1. - С. 95-102.
18. Бердимуродов А., Султонова Л. Экологическая этика и устойчивое развитие: философские аспекты // Вестник Национального университета Узбекистана. - 2021. - №3. - С. 78-84.
19. Jonuzoqov U. Ekologik madaniyat va tabiatga munosabat tarixi. - T.: «Yangi asr avlodi», 2018. - 192 b.
20. Kalonov B.X. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash - barqaror taraqqiyotning asosi // Ijtimoiy fikr. - 2020. - №1. - B. 114-120.